

CHET TILINI TEZ O'RGANISH SIRLARI

Musulmonova Shodiya Ilhomjon qizi

To'xtasinova Sarvinoz Bahromjon qizi

Guliston davlat pedagogika institute " Xorijiy til va adabiyoti" fakulteti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada chet tilini tez va qulay yo'llar bilan o'rganish xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, til o'rganuvchilar, usullar, axborot kommunikatsiya, metodika, grammatika.

Hozirgi kunda chet tillariga bo'lgan talab oshganligi sababli til o'rganuvchilar soni oshib bormoqda. Globallashuv jarayoni tezlashgani sari chet tilini o'rganish zamon talab bo'lib bormoqda. Bugungi kunda har qanday sohada yaxshi mutaxassis bo'lish uchun ingliz tilini bilish oddiy talabga aylanib qoldi. Hozirgi paytga kelib chet tilini o'rganish ba'zilar uchun oson, ba'zilar uchun qiyin. Ko'plab izlanish natijasiga ko'ra bu muammoning yechimi til o'rganishga bo'lgan yondashuvdadir. Chet tilini o'rganish biz o'ylaganchalik qiyin emas, buning uchun biz oson yo'lini tanlab olishimiz kerak. Eng muhimi, har bir sohada bo'lgani kabi motivatsiya va ishtiyoq kerak. O'zingizga doim nima uchun tilni o'rganishim kerak degan savolni bering va har qanday qiynalgan vaziyatingizga tilni o'rganishda bo'lgan maqsadingizni eslang. Eng muhimi- uni o'rgana olishingizda, hammasi sodda, unchalik qiyin emasligi, til o'rganishda boshqalardan kam joyingiz yo'q ekanligini anglab yetishdir. O'zingizga bo'lgan ishonchni orttirganingizdan keyin til o'rganishga kirishsangiz bo'ladi. Bugungi kunda ko'plab til kurslari haftasida 2 yoki 3 marta tashkillanyapti. Shu sababli til o'rganish jarayonida keyingi darslargacha oldingi darslar esdan chiqish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa til o'rganish jarayonini ancha sekinlashtiradi. Shuning uchun ham til o'rganish jarayoni har kuni davom etishi kerak va takrorlanish natijasida til o'rganish tezlashadi.

Tilshunos olimlar til o'rganishni 4 ta katta guruhga ajratishgan: o'qish(Reading), yozish(Writing), eshitish(Listening) va gapirish(Speaking). O'qish- bu chet tilida o'qilgan matni tushunish qobiliyati. Eshitish- bu chet tilida eshitilgan matni tushunish qobiliyati. Yozish- bu chet tilida matni yozish qobiliyati. Gapirish- bu chet tilida o'z fikringizni bayon qilish qobiliyati. Ushbu to'rt narsaga yetishish uchun uchta eng kerak narsani o'zlashtirish kerak: grammatika, lug'at boyligi va talaffuz. Ushbu uch narsani o'rganishni quyidagi vositalar orqali tez o'rganishni tahlil qilasiz.

Birinchi- Grammatika. Odatda chet tilini o'rganuvchilarga grammatika haqida gapirsangiz, ensasi qotadi. Istasak istamasak, til o'rganish jarayonida eng murakkab jarayon bu-grammatikadir. Shu sababli eng muhimi grammatikadir. Biz grammatika deganimizda o'sha Tilda millatlar ishlatmaydigan ko'plab qoidalar o'rganib, yodlab chiqiladi. Ta'lim

tizimimizdagi eng katta muammo-shu yodlashdadir. Yodlash degan narsani umuman esdan chiqaring. Grammatikada faqat kerakli narsani o'rganing. Yodlangan, ammo amalda ishlatilmaydigan qoida xuddi mashina sotib olasiz-u, Lekin uni ishlatmasdan garajga tiqib qo'yib ishga piyoda qatnaysiz, bu ham shunga o'xshash holatdir. Masalan, ingliz tilida ko'plab noto'g'ri fe'llarni yodlaganmiz, ammo ularning hammasini amalda qo'llamaymiz. Har qanday tilni o'rganishda oson usullardan bo'lish kerak. Shuning uchun e'tibor bering. Sodda gap nimalardan iborat. Ega+kesim+to'ldiruvchi. Shu uch qismni grammatikada ishlatish tilni o'rganish uchun yetarlidir. Har qanday tilni o'rganishdan maqsad u Tilda gapira olishdir. Shuning uchun aynan kundalikda ishlatiladigan grammatik mavzularni o'rganing.

Grammatikani o'rganganda tilga eng kerakli mavzularni tanlab olgandan song, ularni o'rganib chiqishni haftalarga taqsimlab chiqing. Har bir mavzuga vaqt ajratgandan so'ng ularni chuqurroq o'rganib chiqing. Natijada 3 oyda gapirish uchun yetarlicha grammatik asosga ega bo'lasiz.

Lug'at o'rganish- Bunda ham yillab Lug'at yodlash samarali usul emas. Lug'at yodlaganda eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni yodlash kerak. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, ingliz tilida ishlatiladigan 200 ta so'z ingliz tilida yoziladigan yozishmalarning yarmini tashkil qiladi. Shuning uchun eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni yodlash kerak. Demak, lug'at yodlagandan so'ng, ular ishtirokida turli xil gaplar tuzish orqali yanada yaxshi o'rganib olish lozim.

Talaffuz- har bir til o'z talaffuziga ega. Tilshunos olimlarning fikricha, 150 tadan Ortiq tovush bo'lib, shunda har bir til 30 tadan ortiq tovush ishlatadi. Natijada, har bir tilning talaffuzida katta farqni keltirib chiqaradi. Tilni o'rgandan so'ng, talaffuzni yaxshilashning usul iloji boricha chet tilini tinglashdir. Shu Tilda beriladigan turli xil kino, videorolikni ko'rish lozim. Chet tilida qo'shiq eshitganda, Yana bir maqsadda foydalansangiz bo'ladi. Ya'ni o'sha tildagi qo'shiq matnini topib, o'z tilingizga o'giring. Bunda nafaqat siz qo'shiq matnini tushunasiz, balki lug'at boyligingizni ham oshirib borasiz.

Ushbu 3 narsani o'zlashtirishdan tashqari Yana biri- chet tili muhitini yaratishdir. O'rgangan narsalarni chet tilidagi materiallarda qo'llasangiz, ingliz tili darajangiz oshib bo'ladi. Chet tilida gapirish uchun Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiyalardan foydalanish samarali. Ijtimoiy tarmoqlarda speaking uchun do'stlar orttirish mumkin. Har kungi muloqot chet tilida gapirishni o'stiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amanov A.K. Principles of communicative competence and its practical reflection on homework. International Interdisciplinary research journal (GIIRJ), 480-484, 2021. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/724>
<https://zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/401>

<https://conferencea.org>

2. Sheraliyeva Sh. Application And Importance of Transport Terminology. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, Issue 10, October 2023: 4742-4750
<https://itella.ee/ru/biznes-klijent/informacija-i-pomoshh/dogovory-i-uslovija/transportnaja-terminologija/><https://reserchjet.academiascience.org/index.php/rjai/article/view/582>
<https://zienjournals.com/index.php/tjm/article/view/2511>

3. COMPARISON OF WORD-FORMATION SYSTEMS IN ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES Bekbolayev Javlonbek Jumanazar o'g'li Guliston Davlat pedagogika insituti pedagogika kafedrasi o'qituvchisi Solijonova Dildora Guliston Davlat pedagogika insitituti Xorijiy til (inglzi tili) I bosqich talabasi Rahmonqulova Vazira Guliston Davlat pedagogika insitituti Xorijiy til (inglzi tili) I bosqich talabasi